

MA'NAVIYATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqola zamonaviy davrda ma'naviyatning mohiyati va namoyon bo'lish shakllari hamda ma'naviy ongning muhimligiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, jamiyat sohalari, jamiyat hayoti, ma'naviyat, iqtisod, siyosat, ijtimoiy turmush, ijtimoiy turmush sohalari, siyosiy madaniyat, demokratiya, huquqiy davlat, millatlararo munosabatlar, dinlararo munosabatlar.

Ma'lumki siyosat jamiyat hayotining alohida bo'g'ini bo'lsa, ma'naviyat esa ikkinchi bo'g'indir. Masalan, nemis sotsiologi va faylasufi Erix Fromm jamiyat hayotini ma'naviyat, siyosat va iqtisodiyotga bo'ladi. Biz uchinchi soha sifatida tor mazmundagi siyosatni emas, kengroq ijtimoiy-siyosiy sohani olamiz, o'z navbatida esa siyosiy sohani ikki nisbatan farqlanuvchi mustaqil sohalarga - fuqarolik jamiyatiga (jamoat, nodavlat notijorat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga) va rasmiy hokimiyatga, ya'ni davlat hokimiyati tuzilmalariga bo'lish tarafdorlari bor. Biz jamiyat hayotini uch sohaga bo'lib qaraymiz: iqtisodiyot, ma'naviyat va ijtimoiy-siyosiy soha. Jamiyatda o'zaro ajralib turadigan turli sohalar mavjud bo'lib ularga: iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'likni saqlash, ilm-fan, ijtimoiy ta'minot, sport.

Aslini olganda ular xalq xo'jaligining (iqtisodiyotning) alohida zaruriy yoki ijtimoiy tarmoqlari hisoblanib ularning faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun tegishli mablag' ajratiladi, investitsiyalar kiritiladi. Ular ishlab chiqarishning zamonaviy jamiyatdagi alohida turlaridir. Masalan, ta'lim kadrlarni, mutaxassislarni tayyorlaydi (ishlab chiqaradi). Ammo siyosat va ma'naviyat (sof ma'naviyat - ma'naviy ong, iroda, adabiyot va san'at, urf-odatlar) jamiyat hayotining shunday sohalaridirki, ular bevosita xalq xo'jaligining tarmoqlarini tashkil etmaganligi uchun ham, ko'p hollarda ijtimoiy-iqtisodiy soha degan atama keng tarqalgan. Ta'lim, ilm-fan, din, adabiyot va san'at, axloq ma'naviyat tarkibida ko'rilgani uchun biz faqat siyosat, iqtisodiyotning ijtimoiy jihatlari, urf-odatlar bilan cheklanamiz. Siyosat, birinchi navbatda, bu jamiyatni boshqarishdir. Agar to'g'ri iqtisodiy siyosat olib borilsa, iqtisodiyot yuksaladi, noto'g'ri olib borilsa, tanazzulga uchraydi. Ma'naviyat, madaniyat, xalq ta'limi siyosatga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat idoralari qanday faoliyat olib borishi, siyosat yuritishi, hokimiyat uchun kurashlar qanday shakllarda, usullarda kechishi, bu kurashning demokratik talablarga, adolatga, qonuniylikka, axloqiylikka muvofiqligi barchamizga ma'lumdir.

Jamiyat a'zolarining ongiga, madaniy saviyasiga, huquqiy savodxonligiga, siyosiy faolligiga, jamiyatdagi ma'naviy muhitga, saylov qonunlari va demokratik tamoyillar ustuvorligi doim bir biriga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek iqtisod, siyosat va ma'naviyat o'rtasidagi chambarchas aloqadorlik bor bo'lib, bu aloqalarning dialektikasi haqida qisqacha fikr yuritsak, quyidagilarni e'tirof etish lozim:

1. yaxshi rivojlangan iqtisodiyot ta'lim, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatni yaratuvchi boshqa sohalarga yetarlicha mablag', moddiy va ijtimoiy resurslar ajrata oladi, va kadrlarni tayyorlaydi;

2. har qanday to'g'ri va jozibador g'oya iqtisodiy jihatdan ta'minlanmasa, hayotga tadbiq etilmay qolib ketganligi, so'z bilan ish birligi yuzaga kelmaganli natijasida, odamlar asta-sekin bu g'oyaga ishonmay qo'yishadi;

Iqtisodiyot rivojlanishi ko'p jihatdan yangi ilmiy-texnologik g'oyalarning tug'ilishiga va ishlab chiqarishga, iqtisodiy munosabatlarga joriy qilinishiga bog'liq bo'lganligi uchun ham bugun axborot texnologiyalari ishlab chiqarishni, savdo-sotiqni, umuman, iqtisodiy aloqalarni tubdan o'zgartirib yubordi, ya'ni onlayn rejimidagi iqtisodiy muzokaralar, kelishuvlar, birjalardagi ahvolni kuzatish, iqtisodiy jarayonni monitoring qilish, elektron shakldagi shartnomalar, hisobotlar, internet orqali kerakli buyumni xarid qilish va ilm-fan (ma'naviyat unsurlari), axborot texnologiyalari, ular bilan bog'liq huquq, huquqiy madaniyatning takomillashuvi, odamlar o'rtasida o'zaro ishonch ortishi natijasidir, iqtisodiyot va ma'naviyat real inson ehtiyojlaridan, jamiyatning aniq vazifalaridan ajralib qolsa, o'z maqsadlarini belgilashda adashib ketadi, bunday hollarda ikki xil vaziyat vujudga kelishi mumkin:

1. ma'naviyat masalalariga yetarli e'tibor berilmasa, iqtisod uchun, kapitalni aylantirib, faqat foyda olish uchun bo'lib qoladi bu esa maqsadga, go'yoki butun jamiyat ham, alohida inson ham bo'ysunishi, ma'naviyat esa iqtisodiyotning mafkuraviy xizmatkoriga, cho'risiga aylanishi taqazo etadi;

2. inson kamolotidan, jamiyat rivojlanishining aniq vazifalaridan, maqsadlaridan ajralgan iqtisodiyot ma'naviyatni ma'lum darajada inkor qiladi, insonni o'ylamaydigan ma'naviyat nafs va hirsni inkor etish bahonasida aslida iqtisodiy rivojlanishni inkor etadi, hatto o'zining eng keskin ko'rinishlarida zohidlik va tarkidunyochilikni oqlaydi;

Darhaqiqat, faqat bir sohadagina taraqqiyot yuz bersa, bu boshqa sohalardagi taraqqiyotni xarob etadi. Insonparvar jamiyatni faqat iqtisodiyot va texnologiyani rivojlantirib yaratish mumkin emas. Chunki faqat iqtisodiyot va texnologiya haqida qayg'urilsa, inson o'z ongini, o'zligini yo'qotadi. Uni iqtisodiyotning oddiy murvatiga aylantirib qo'yadigan texnokratik jamiyat qaror topish ehtimoli kuchayadi.

Ma'naviyatning ijtimoiy turmush sohalariga ta'siri etishi bu juda kerakli bo'lib, jamiyatning siyosiy hayotida o'z ravnaqini topadi. Fuqarolarning hokimiyatga, siyosiy partiyalarga munosabatlari, jamoat tashkilotlarining o'zaro va davlat bilan munosabatlari, fuqarolar erkinliklari ma'lum huquqiy makonda kechib, ularning qanday tamoyillarga asoslanishi, fuqarolik huquqlarining qay darajada ta'minlanishi nafaqat Konstitutsiyaga balki, huquqiy me'yorlarning demokratik xarakteriga, siyosiy madaniyatiga, undagi ma'naviy muhitga ham bog'liqdir.

Qonunga rioya etish bevosita jamiyat a'zolarining ijtimoiy va maishiy xulq-atvori, ongi va irodasining yuzaga chiqishidir. Agar eng yaxshi, taraqqiyparvar qonunga jamiyat a'zolarining aksariyati rioya qilmasa, undan foyda kam bo'ladi.

Fuqarolarning huquqiy va siyosiy ongi, tolerantligi, qonunga itoatgo'yiligi, turli davlat va jamoat tashkilotlari ishida, jamiyatda sodir bulayotgan jarayonlarda faol ishtirok etishi, bu jarayonlarga hamda hokimiyat va partiyalar siyosatiga, ijtimoiy institutlar ishiga o'z munosabatlarini bildirish orqali ta'sir etishi "siyosiy madaniyat" degan tushunchani tashkil etadi.

Siyosiy madaniyat - onga, dunyoqarashga, fuqarolarning o'z manfaatlarini va burchlarini, haququqlarini anglab, jamiyat manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishiga, vatanparvarligiga, qay darajada erkin va ijodiy fikr yurita olishiga, mas'ullikni his qilishiga, xullas, fuqaroviy va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Siyosiy madaniyat faqat fuqarolargagina oid hodisa emas, u bir tomondan, turli ijtimoiy guruhlariga, tabaqalarga, sinflarga, butun jamiyat a'zolariga, ikkinchi tomondan, eng mayda jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatidan tortib, yirik siyosiy partiyalar va davlat idoralari faoliyatigacha taalluqli hodisa hisoblanadi.

Siyosiy madaniyat, shuningdek, qonun chiqaruvchining (parlamentning), qonun loyihalarini taqlif qiluvchi tashabbuskorlarning, ijtimoiy institutlarning saviyasi, professionallik yetukligini o'z ichiga oladi. Turli ijtimoiy guruhlarining, siyosiy partiyalarning, ular tuzgan tashkilotlarning, ommaviy axborot vositalarining faoliyati insonparvarlik, xalqchilik tamoyillariga mos bo'lishi yoki, aksincha, mutaassiblikka tamoyil, reaksiya, shovinistik bo'lishi yoxud insonparvarlikka, ezgulikka zid kelishi mumkin. Ma'naviyat keng ma'nodagi siyosiy madaniyatga bevosita belgilovchi ta'sir ko'rsatib, siyosiy madaniyat ma'naviyatning mavjudlik shakllaridan biridir. Ma'naviyatning xususiyatlarini belgilaydi ya'ni iqtisodiyot va ma'naviyat erkin rivojlanishi uchun siyosiy tuzum demokratik bo'lishi, jamiyatda qonun ustuvorligi va hammaga birday majburiyligi ta'minlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.:Ўзбекистон, 2021 йил.
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – T.:O'zbekiston, 2018 yil. 137- 151; 461-496; 504-538 betlar.
3. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: 2018 y. 136-146; 176-221 betlar. 35
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
5. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009 yil.